

## O‘zbekiston - Italiya: Ta‘lim – Hamkorlikning Ustuvor Yo‘nalishi

*Toshov Muxiddin*

**Abstract:** He article discusses the cooperation between Italy and Uzbekistan in the field of education, which has become an important part of the relations between the two countries. The article discusses the cooperation between Italy and Uzbekistan in the field of education, which has become an important part of the relations between the two countries.

**Keywords:** higher education, cooperation, education, upbringing, values, program, textbooks, forum.

Italiya va O‘zbekiston o‘rtasida ta‘lim sohasidagi hamkorlik so‘nggi yillarda faollashib bormoqda va bu ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarning muhim qismiga aylangan. Hamkorlik ko‘plab yo‘nalishlarni qamrab oladi va ta‘lim sifatini oshirish, o‘zaro tajriba almashish va madaniy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan. Oliy ta‘lim sohasida hamkorlik: O‘zbekiston va Italiya universitetlari o‘rtasida hamkorlik aloqalari o‘rnatilgan. Bu talabalar va o‘qituvchilar almashinuvi, qo‘shma ilmiy tadqiqotlar, konferentsiyalar va seminarlar tashkil etishni o‘z ichiga oladi.

Qo‘shma ta‘lim dasturlari: Qo‘shma ta‘lim dasturlari (double degree programs) talabalarga ikki davlat universitetlarida o‘qish va diplom olish imkoniyatini beradi. Misol uchun, Turin Politeknika universiteti (Politecnico di Torino) Toshkentda filialga ega va bu yerda talabalar texnika yo‘nalishlari bo‘yicha ta‘lim olishlari mumkin.

Erasmus+: Erasmus+ dasturi O‘zbekiston universitetlarining Yevropa universitetlari bilan hamkorlikda loyihalarda ishtirok etishini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu loyihalar ta‘lim sifatini oshirish, o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish va yangi ta‘lim metodlarini joriy etishga qaratilgan.

Samarqand davlat chet tillar instituti 1999-yildan buyon O‘zbekistonda italyan tili va madaniyatini o‘qitish bo‘yicha tayanch oliy ta‘lim muassasasi hisoblanadi. O‘sha vaqtda Italiyaning O‘zbekistondagi elchixonasi bilan hamkorlikda Massimo Toskani va Giovanna Piyera Viale Samarqandda ilk ta‘lim kurslarini boshlagan edi. Bu paytda italyan tili faqat ikkinchi til sifatida o‘rgatilgan, ammo bu katta loyihaning boshlanishi, ya‘ni Markaziy Osiyoda italyan tili va madaniyatiga bo‘lgan talabni qondirishga qo‘yilgan ilk qadam edi. O‘qituvchi va talabalarimiz har yili Italiya vazirligi (MAESI) va Italiya oliy ta‘lim muassasalari tomonidan taqdim etilayotgan tanlovlarga qatnashib keladi. Tanlovda g‘olib bo‘lgan o‘qituvchilarimiz xorijda bir oylik malaka oshirsa, til imtihonidan o‘tgan talabalarimiz uch oylik stajirovkaga yuboriladi. 2024 yilning yanvarida institut nashriyoti tomonidan roman-german tillari fakulteti, ispan va italyan filologiyasi kafedrasida o‘qituvchilari muallifligida italyan tili morfologiyasi bo‘yicha o‘zbek tilida ilk darslik chop etildi. Darslik nafaqat talabalar, balki mustaqil ravishda italyan tilini o‘rganuvchilar uchun ham qo‘llanma hisoblanadi. Talabalarimiz ham italyan tilini yaxshi o‘zlashtirib, turli tanlovlarda yutuqlarni qo‘lga kiritmoqda. Masalan, joriy yilning avgust oyida Italiyada 3-kurs talabasi Abdulla Lutfullayev italyan tilida she‘r yozish bo‘yicha tanlovda qatnashib, 1-o‘rinni egalladi. Yaqinda 2-kurs talabasi Shuhrat Karimov oliy ta‘lim muassasalari talabalar o‘rtasida bo‘lib

<sup>1</sup> G.Gulyamova: Ta‘limda boshqaruvning Yevropa tajribasining ilmiy nazariy asoslari



o‘tgan respublika fan olimpiadasida 2-o‘rinni oldi.

Mamlakatimizda yetuk mutaxassislar tayyorlash, ularni jahon talabi darajasida bilim olishi, qobiliyatini rivojlantirishi, bir so‘z bilan aytganda, o‘z sohasining haqiqiy ustasi bo‘lib shakllanishiga davlat siyosati darajasida qaralmoqda. Rivojlangan davlatlar bilan ta‘lim yo‘nalishidagi aloqalar mustahkamlanyapti. Italiyaning Kamerino universitetida Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun universitetlararo hamkorlik bo‘yicha "Erasmus+" dasturi doirasidagi "UNICAM 2024" konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.

Konferensiya Markaziy Osiyo va Italiya oliy ta‘lim muassasalari mutaxassislari muloqotiga bag‘ishlangan "Xodimlar haftaligi" doirasida o‘tkazilib, hamkorlar salohiyati va imkoniyatlari taqdimoti uchun qulay zamin yaratdi. So‘nggi yillarda Italiya va O‘zbekiston oliy ta‘lim bilim yurtlari o‘rtasidagi hamkorlik jadallashib bormoqda. Toshkentdagi Turin politexnika universiteti, Geologiya fanlari universitetidagi Piza universiteti bo‘limi, Buxoro davlat tibbiyot instituti va Kampaniya viloyatining "Luidji Vanvitelli" universiteti hamda Qishloq xo‘jaligi vazirligi va Tushia universitetining qo‘shma o‘quv dasturlari hamkorlikning yaqqol isbotidir. Konferensiyada Toshkent davlat texnika universiteti, Namangan davlat chet tillari instituti, Qozog‘iston hamda Qirg‘iziston universitetlari rahbarlari va vakillari, diplomatlar, mahalliy "aql markazlari" va OAV vakillari qatnashdi.

Anjumanda oliy ta‘lim muassasalari oldida turgan vazifalar, turli sohalar uchun yuqori malakali mutaxassislar yetishtirish kabi dolzarb masalalar atroflicha muhokama qilindi.

Bugungi kunda "Erasmus+" mablag‘lari ko‘magida Markaziy Osiyo universitetlaridan bir qancha magistrant va doktorantlar, xususan O‘zbekiston oliy ta‘lim bilim yurtlaridan biologiya va kimyo fanlari bo‘yicha doktorantlarning Kamerino universitetida ilmiy amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan<sup>2</sup>. "Markaziy Osiyo mintaqasi bizda katta qiziqish uyg‘otdi. Bir nechta talabalar o‘quv kurslarimizda qatnashmoqda. Mintaqadan yanada ko‘proq talabalarni bu yerda ko‘rishdan manfaatdormiz", – dedi UNICAM bosh direktori Andrea Braski.

"O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalariga o‘qituvchilarimizni yuborib, "Atrof-muhitni boshqarish" va "Shaharsozlik" fanlari bo‘yicha ma‘ruzalar o‘tkazishga tayyormiz", dedi universitetning mobil dasturlar koordinatori Luchano Barboni.

Kamerino universiteti 1336-yilda tashkil etilgan<sup>3</sup>. Bugungi kunda bu yerda 8,5 ming talaba 29 ta bakalavriat va magistratura dasturlarida tahsil olmoqda. O‘zbekiston – Italiya hamkorligi ham ana shunday xayrli maqsadga yo‘naltirilgan. – Italiyaning nufuzli oliy o‘quv yurti bilan mashinasozlik va mexanika tarmog‘iga yuqori malakali kadr tayyorlash bo‘yicha kelishuv yo‘lga qo‘yilishi aloqalarimizni yangi bosqichga ko‘tardi, – deydi Turin politexnika universiteti rektori, texnika fanlari doktori Jamshid Inoyatxo‘jayev. – Italiyaning "Politecnico-di Torino" universitetining Toshkentda filialini ochishdan ko‘zlangan asosiy maqsad — mamlakatimiz sanoat tarmoqlari uchun yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, oliy ta‘lim berishning zamonaviy shakllarini ishlab chiqish, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini, fan va texnikaning so‘nggi yutuqlarini o‘quv jarayoniga joriy etishdir. Ma‘lumki, avtomobilsozlik, mashinasozlik, energetika sanoati, arxitektura sohasidagi tashkilot va korxonalariga yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetining o‘rni beqiyos. Oliygo‘h 2009-yil "O‘zavtosanoat" AJ, hamda Italiyaning Turin politexnika universiteti bilan hamkorlikda ochildi. Maskanda o‘quv jarayoni Yevropaning kredit ko‘chirish va jamg‘arib borish (European Credit Transfer System) – "ECTS" tizimi bo‘yicha ingliz tilida olib boriladi. Talabalar nazariy bilim va ko‘nikmani amaliy jihatdan mustahkamlashlari uchun o‘quv va ma‘muriy bino, konferensiya zali, kutubxona va ma‘ruza zali, maxsus laboratoriya, texnopark, metrologiya va mexatronika markazlari faoliyat yuritmoqda. Sport majmuasi, basseyn, futbol va basketbol maydoni zamonaviy usulda qurilgan. Hozir universitetda talabalar mashinasozlik, avtomobilsozlik texnologiyasi, kompyuter muhandisligi, sanoatda qurilish texnologiyasi va

<sup>2</sup> Uza.uz O‘zbekiston Milliy axborot agentligi

<sup>3</sup> [www.Ziyo.net](http://www.Ziyo.net)



arxitektura, dasturiy muhandislik, arxitektura va dizayn yoʻnalishlarida bakalavr bosqichida taʼlim olmoqda.

2022-2023 yildan boshlab bakalavriatda Biznes boshqaruvi – menejment, Sanoat ishlab chiqarish texnologiyalari kabi yangi yoʻnalishlar ochilishi rejalashtirilgan.

Toshkentdagi Turin politexnika universiteti Italiyadagi “Politecnico -di Torino” bilan talabalar almashinuvini amalga oshiradi. Dastur 2-3-bosqichga moʻljallangan boʻlib, talabalar birinchi yoki ikkinchi chorakni ushbu taʼlim maskanida oʻqishi mumkin. Bitiruvchilarga ikki mamlakat diplomi topshiriladi. Bunday diplomga ega yigit-qiz dunyoning har qanday yirik kompaniyasida ishlay oladi. Hamkorlik doirasida avtomobilsozlik sanoati ishlab chiqarish tarmoqlarining uzoq muddatli va barqaror rivojlanishi, yangi ishlab chiqarish vositalarini amalga tatbiq qilish, ilgʻor xalqaro tajriba asosida yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida “Oʻzavtosanoat” AJ boshqaruvi raisi boshchiligidagi delegatsiya aʼzolari joriy yil 2-7 aprel kunlari “Politecnico-di Torino”da boʻlishdi.

Tashrif doirasida korxonalar rahbari Shavkat Umurzoqov, Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti rektori Jamshid Inoyatxoʻjayev, Andijon mashinasozlik instituti rektori Umid Turdialiyev va “Politecnico -di Torino” rektori Guido Sarakko 4 ishtirokida muzokara boʻlib oʻtdi. Vakillarimiz universitet hududida joylashgan oʻquv va ilmiy laboratoriyalar bilan tanishdi, avtomobilsozlik sohasidagi tadqiqot markazlari va korxonalar faoliyatini oʻrganishdi. Uchrashuvda erishilgan kelishuvlar asosida avtomobilsozlik va mashinasozlik sohasida mutaxassis tayyorlash maqsadida Italiyadan professor-oʻqituvchilar, mutaxassislarni jalb etgan holda Toshkentdagi filial tarkibida “Sanoat ishlab chiqarish texnologiyalari” professional oliy taʼlim yoʻnalishini ochish koʻzda tutilmoqda. 2022-2023 oʻquv yildan boshlab mazkur boʻlim birinchi bosqichiga 150 talaba qabul qilinadi. 2023-2024 oʻquv yilidan boshlab esa xuddi shunday yoʻnalish Andijon mashinasozlik institutida ham joriy etiladi.

Talabalar amaliy mashgʻuloti oʻquv rejasi bevosita sanoat va ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlikda ishlab chiqiladi. Natijada bitiruvchilar oʻqishni tamomlagandan soʻng ish joyida qoʻllashi mumkin boʻlgan kasbiy koʻnikmaga ega boʻladi.

Bugungi kunga qadar mingdan ortiq talaba-yosh bu dargohni tamomlab, mutaxassislik diplomini qoʻlga kiritdi<sup>5</sup>. Maʼlumki, yoshlarga taʼlim-tarbiya berish bilan birga ularni oʻz kasbi boʻyicha ish bilan taʼminlash ham bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan. Shu maʼnoda universitetni tamomlagan koʻplab yoshlar “Oʻzavtosanoat” aksiyadorlik jamiyati korxonalarida ishlayotgani diqqatga sazovor. Joriy yilning 23-27-sentabr kunlari Universitetlar va tadqiqotlar vaziri Anna Mariya Bernini boshchiligidagi Italiya oliy taʼlim muassasalari rektorlari delegatsiyasi amaliy tashrif bilan Oʻzbekistonda boʻladi.

Oʻzbekistonning Rim shahridagi elchixonasi maʼlumotiga koʻra, tashrif davomida Toshkent shahrida 24-sentabr kuni birinchi Oʻzbekiston-Italiya taʼlim forumi oʻtkaziladi.

Tadbirda Italiyaning Turin politexnika, Venetsiyaning Ka-Foskari, Bolonya, Piza, Bikokka Milan, Roma Tre, Tushsha va Siyena universitetlari kabi 20 dan ortiq yetakchi oliy oʻquv yurtlari, Oʻzbekiston tomonidan esa 46 ta yetakchi oliy taʼlim muassasalari rektor va prorektorlari ishtirok etadi.

Forum doirasida ikki davlat universitetlari oʻrtasida bir qator qoʻshma taʼlim dasturlarini amalga oshirishga oid hamkorlik shartnomalari imzolanishi rejalashtirilgan.

Oʻzbekiston-Italiya taʼlim forumi kun tartibidan talabalar va professor-oʻqituvchilar almashinuvi, pedagoglar malakasini oshirish, universitetlararo hamkorlik, ilmiy tadqiqot loyihalarini qoʻllab-quvvatlash va sohaning boshqa muhim masalalari muhokamasi oʻrin olgan.

Italiya tomoniga koʻra, Universitetlar va tadqiqotlar vaziri Anna Mariya Bernini ushbu tashrif davomida

<sup>4</sup> Uza.uz Oʻzbekiston Milliy axborot agentligi

<sup>5</sup> [www.Ziyo.net](http://www.Ziyo.net)



aniq natijalarga erishish va mazkur yo‘nalishda ikki davlat oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasidagi aloqalarni yanada rivojlantirishni asosiy maqsad sifatida belgilamoqda.

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti xorijiy oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini tobora kengaytirib bormoqda. Xususan, universitet Italiyaning Peskara - Yevropa Dizayn Universiteti bilan qo‘shma ta‘lim dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha kelishuv imzoladi. Shuningdek, Peskara universiteti mutaxassislari tomonidan, KIUT’dagi professor-o‘qituvchilar va talabalar uchun master klasslar tashkil etildi.

“Bugun biz Toshkent Kimyo xalqaro universiteti bilan qo‘shma ta‘lim dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha kelishuv imzoladik. O‘zaro kelishuvlarga ko‘ra, endilikda, o‘zbekistonlik va italiyalik talabalar moda va dizayn yo‘nalishlarida o‘zaro ma‘lumot va tajriba almashish imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda. Shuningdek, KIUT talabalari Summer school dasturlari orqali, Italiyaga borib bizdagi ta‘lim tizimi bilan tanishishlari mumkin bo‘ladi. Universitetda o‘tkazilayotgan bunday tadbirlarga kelish va talabalarning ishlanmalari bilan yaqindan tanishish biz uchun juda muhim. Umid qilamanki, bugun hamkorlikda o‘tkazilayotgan Fashion show kelajakdagi ko‘plab hamkorliklarimizning boshlang‘ich nuqtasi bo‘ladi”, - dedi Peskara universiteti direktori Mauritsio Lepore. Italiyalik mehmonlar KIUT’da tashkillashtirilgan modalar namoyishida ham ishtirok etishdi. Ushbu modalar namoyishi universitetda 2019-yildan buyon “Liboslar dizayni” yo‘nalishi talabalari tomonidan hisobot tarzida o‘tkazib kelinadi<sup>6</sup>

. Ushbu ko‘rgazmada moda industriyasida o‘zini iqtidorli shaxs sifatida ko‘rsatishga muvaffaq bo‘lgan yosh dizayner – talabalarning so‘nggi kolleksiyalari namoyish etiladi. Har bir talaba eng zamonaviy texnologiyalar, materiallar va g‘oyalarni qo‘llagan holda yaratilgan ijod namunalarini keng ommaga taqdim etadi. Ushbu modalar namoyishi turli stillar, badiiy jarayonlar, tendensiyalarni qamrab olgan 30 dan ortiq liboslar to‘plamidan tashkil topgan. Talabalar o‘z to‘plamlarida “Ijod manbalari”, “Tabiat”, “Transformatsiya”, “Etno” kabi mavzular ustidagi izlanishlari va kreativ g‘oyalarni namoyish qiladilar. Ushbu namoyish moda olamida rivojlanishning yangi bosqichiga aylanib, talabalarning professional va ijodiy o‘sislariga asos bo‘lib xizmat qiladi.

2025-yil 23-yanvar kuni Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo‘ng‘iroq Sharipov bilan Italiyaning mamlakatimizdagi Favqulodda va Muxtor elchisi Piergabriele Papadiya de Bottini o‘rtasida uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Dastlab vazir Q. Sharipov oliy ta‘lim, ilm-fan va innovatsiyalar sohasida olib borilayotgan islohotlar, Italiya bilan mavjud hamkorlik aloqalari haqida batafsil ma‘lumot berdi. Shuningdek, Italiya bilan sohada ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini kengaytirish, ko‘proq texnika va muhandislik fanlarni rivojlantirishga hamda ushbu yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlash bo‘yicha hamkorlikka yanada ko‘proq e‘tibor qaratilayotgani ta‘kidlandi. O‘z navbatida, elchi Piergabriele Papadiya de Bottini O‘zbekiston va Italiya o‘rtasidagi aloqalar yaqin hamda faol ekanligi, ikki mamlakat uchun hamkorlikning asosiy va muhim yo‘nalishi ta‘lim, ilm-fan sohasi hisoblanishini qayd etdi. Muloqotda Italiyalik professor-o‘qituvchilarni nafaqat italyan tilini o‘qitish, balki turli sohalar va ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha ma‘ruza o‘qish, mahorat darslarini o‘tkazish, tajriba almashish maqsadida respublika oliygohlariga taklif qilish, shuningdek, Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida tahsil olayotgan iqtidorli talabalarni Italiya zavodlariga amaliyot o‘tash uchun yuborish takliflari bildirildi. Muzokara davomida respublika oliygohlarining Yevropa Ittifoqining Erasmus+, Gorizont va boshqa dasturlarida ishtirok etishi hamda hamkorlikda ta‘lim va ilm-fan sohasida loyihalarni amalga oshirish alohida ahamiyat kasb etishi aytib o‘tildi. Shuningdek, Italiyada ta‘lim olish imkoniyatlari, madaniyati bilan yaqindan tanishish maqsadida tomonlar o‘rtasida O‘zbekistonda yoshlar va talabalar uchun “Italiya ta‘lim kunlari”, “Italiya ochiq eshik kunlari” kabi tadbirlarni hamkorlikda o‘tkazish borasida kelishuvlarga erishildi.

<sup>6</sup> Uza.uz O‘zbekiston Milliy axborot agentligi



**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekistonda ta’lim tizimi va uning Yevropadagi tajribalari. D.Nazarova, (2020). Yevropa mamlakatlarida ta’lim tizimi va O‘zbekistonga ta’siri.
3. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 188 b.
4. G.Gulyamova: Ta’limda boshqaruvning Yevropa tajribasining ilmiy nazariy asoslari
5. M.Toshov . Rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi – Toshkent: EN, 2023. – 103 b
6. Kredit-Modul tizimida Oliy ta’lim muassasalari talabalarining muloqot kompetentsiyalarini rivojlantirishning pedagogik jihatlari .Sh.K.Abdurasulova
7. Yevropa ta’lim tizimi va o‘qituvchilik: o‘rganish va rivojlantirish strategiyalari. Brown, M., (2018). The European Education System: Structures and Development. London: Routledge.
8. Comparative Education Review. Journal of Comparative and International Education.
9. UNESCO Reports on Education. UNESCO Education for Sustainable Development: A Guide for Educators and Policymakers. UNESCO, 2019.
10. European Commission Reports on Education. Education and Training 2020: Strategic Framework for European Cooperati

